
“FARG’ONA SUV TA'MINOTI” MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI QO'SHTEPA TUMANI FILIALI RAHBARI TAYINLANDI

Koxorov Kaxramon Rovshanovich “Farg’ona suv ta'minoti” mas'uliyati cheklangan jamiyati Qo’shtepa tumani filiali rahbari lavozimiga tayinlandi.

Kaxramon Koxorov 1984 yili Farg’ona shahrida tug’ilgan. 2008 yili Farg’ona Politexnika institutini bitirgan.

Mehnat faoliyatini 2008 yili Farg’ona shahar hokimligi Iqtisod bo’limi mutaxassisi lavozimida boshlagan. Mehnat faoliyati davomida Quvasoy shahar Iqtisod kollejida iqtisod fani o’qituvchisi, Farg’ona shahar “Suvoqava” ishlab chiqarish Davlat unitar korxonasida Mijozlar bilan ishlash bo’limida injener texnolog, Maxsus bo’lim boshlig’i, Farg’ona viloyat “Suvoqava” Davlat unitar korxonasi Axborot taxlil bo’limi boshlig’i, Qo’shtepa tumani “Suvoqava” davlat unitar korxonasi rahbari, Farg’ona viloyat “Me'yorlash tadqiqot” Markazi katta ilmiy xodimi, 2017 yildan mazkur vazifaga tayinlangunga qadar Farg’ona viloyat “Me'yorlash” tadqiqot markazi boshlig’i bo’lgan. Oilali, turmush o’rtog’i - Farg’ona shahridagi 41-MTMda tarbiyachi.

2020-12-04 19:14:55